

## **XV-XVIII asrlarda Fransiya**

*Ubaydullayev Xumoyiddin*

+998915779674

[ubaydulayevhumoyiddin@gmail.com](mailto:ubaydulayevhumoyiddin@gmail.com)

*Ergashev Muzaffar*

+998912324119

[Ergashevmutazaffar654@gmail.com](mailto:Ergashevmutazaffar654@gmail.com)

**Annotatsiya:** Verden sulhiga ko‘ra, 843-yilda franklar davlati uch qismga bo‘linib ketdi. G‘arbiy “Fransiya”, O‘rta “Fransiya” va Sharqiy “Fransiya”ga bo‘lindi. Keyinchalik ulardan faqatgina g‘arbiy qismi o‘zining eski “Fransiya” nomini saqlab qoldi. Uning hududi Shelda daryosi sohillaridan to Rona daryosi sohillarigacha bo‘lgan. Bu yerda to 987-yilgacha Karl Buyukning avlodlari hukmronlik qildilar, keyinchalik ularning hokimiyati yer egalari tomonidan zaiflashtirilib yuborildi.

**Kalit so‘zlar:** *Kapetinglar, domen, balyaj, general shtatlar, servlar, villanlar, Jakeriya, ”Orlean qizi”.*

Qirol domeni hududi Fransiyadagi ikkita daryo ya’ni Sena bilan Luara daryosining o‘rta oqimi bo‘ylaridagi yerlarni o‘z ichiga olgan edi. Qirol domenini xalqa qilib o‘rab olingan yirik feodal knyazliklar tashkil qilar edi, ya’ni; shimolda-Flandriya grafligi, Normandiya gersogligi, Bretan gersogligi; g‘arbda-Anji grafligi va Akvitaniya gersogligi; janubda-Overn grafligi, Tuluza grafligi; sharqda -Shampan grafligi va Burgundiya gersogligi bor edi.

Qirol hokimiyatining kuchayishi Lyudovik VI Semiz (1108—1137) davrida katta ishlar qilindi. U o‘ttiz yillik hukmronlik davrini o‘z domenidagi baronlarga qarshi kurash bilan o‘tkazib, ularni o‘ziga bo‘ysundirdi. Masalan, u talonchilik qilib yurgan ritsarlardan biri Tomas de Marl ni juda qattiq jazolab, uning qasrini vayron qilib, o‘zini turmaga tashlatdi. Bundan tashqari senyorlar Montleri, Pyunzalarning qasrlarini qirol domeniga qo‘shib olindi.

Lyudovik VI ning vorisi Lyudovik VII (1137—1180) ancha keng siyosat yurgizdi U ikkinchi salib yurishida ham ishtirok etgan edi. U o‘z domenini kengaytirib, Burj va Sans shaharlarini qo‘shib oladi.

Lyudovik VII davrida qirol sulolaviy nikoh yo‘li bilan janubi-g‘arbdagi juda katta gersoglikni — Akvitaniyani qo‘lga kiritdi. Ammo, tez orada qirol Eleonora Akvitanskaya bilan turmushi buziladi. Anji grafi Genrix II ning qo‘lida Men va Normandiya ham bor edi. Lyudovik VII ning qo‘yib yuborgan xotiniga Genrix II

uylanadi va u 1154-yilda Angliya qiroli deb e'lon qilinadi, shundan so'ng Fransiya hududidagi Anju, Men, Normandiya va Akvitanialar Angliya qiroli tarkibiga o'tadilar, Genrix II Plantagenet Kapetinglarning xavfli raqibiga aylanadi. Fransuz mulkiga ega bo'lgan Plantagenetlar Fransiya qirolning vassallari hisoblanar edi.

XII asrning II-yarmidan boshlab Kapetinglarning shimoliy Fransiya hududlari uchun plantagenetlarga qarshi kurashi kuchaydi.

Bu kurash ayniqsa, Lyudovik VII ning o'g'li Filipp II Avgust (1180—1223) davrida o'zining yuqori nuqtasiga chiqdi. Filipp II o'z hukmronligi davrining boshlaridayoq shimoldagi Pikardiya va Vermanduani qirollik domeniga qo'shib oldi. U Fransiyaning asosiy raqibi ingliz qiroliga qarshi kurashni boshlaydi. XIII asr boshlarida Filipp II mulklarining ko'pchiligini; Normandiya, Anju, Men, Turen, Puatuning bir qismini 1204-1214 yillarda Plantagenetlardan tortib oldi.

Filipp II davrida qirol domeniga ko'plab yerlar qo'shib olinishi munosabati bilan muhim ma'muriy islohot o'tkazildi. Qirollikka qarashli yerlar balyaj deb ataluvchi okruglarga bo'linib, ularga qirollik gubernatorlari-balyalar boshliq qilib qo'yildi. Balyalar vakolatiga sud, soliqlar yig'ish, lashkarlar to'plash edi. Ular vaqt-vaqti bilan qirolga yozma hisobot berib turardilar. Filipp II davrida jami bo'lib 20ta balyaj tashkil qilingan edi.

U sud, ma'muriy va moliya sohasida islohot o'tkazdi.

Lyudovik IX davrida Fransiyaning idora qiluvchi markaziy boshqarma tashkil topdi, u qirollik kengashi deb atalardi. U doimiy ishlaydigan qirollik tekshiruvchilar (amaldorligini) joriy etdi, bu revizorlar joylarga borib, qirol amaldorlarini tekshirib, yo'l qo'yilgan kamchiliklar to'g'risida Kengashga axborot berib turardilar.

U sud islohoti natijasida yangi tartiblar joriy qildi;

- 1) Feodal sudi hukmi ustidan qirol sudiga arz qilishi mumkin.
- 2) Odam o'ldirganlik, talonchilik, birovning mulkiga o't qo'yish, soxta pul ishlab chiqarish bilan bog'liq jazolar qirol sudida ko'rib chiqiladigan bo'ldi.
- 3) Feodallar o'rtasidagi o'zaro urushlar ta'qiqlandi. "Qirolning qirq kuni" deb atalgan tartib joriy qilindi. Unga ko'ra, bir-biri bilan janjallashgan feodallarning zaif tomoni 40 kun ichida qirolga arz qilib, qanday sabablar bilan nizo kelib chiqqanligi, nizoni adolatli yo'l bilan hal qilishni so'rab, yordam so'rashi mumkin edi. Bu paytda kuchli tomon urush ochishga haqqi yo'q edi.

Lyudovik IX ning nevarasi Filipp IV Chiroyli (1285—1314) Kapetinglar dinastiyasining uchinchi yirik vakili edi. Filipp IV ning inglizlar bilan olib borgan kurashi Langedokni (Tuluza grafligi), 1308-1309 yillari Akvitanianing bir qismini, 1285 yili Ispaniya bilan chegaradosh bo'lgan Navarra qirolligini va Fransiyaning janubi-sharqidagi Lion viloyatini qirollik domeniga qo'shib oldi.

1307 yili mamlakat markazidagi Lionni qo‘shib olinishi Fransiyani markazlashtirishdagi muhim qadam bo‘ldi. Filipp IV qirollik davrining boshidan to oxirigacha o‘sha zamondagi Shimoli-g‘arbiy Yevropaning sanoat o‘lkasi hisoblangan Flandriyani egallashga harakat qildi.

Kurtra yonidagi jangda Gent va Bryugge hunarmandlari bilan Flandriya dehqonlari 1302 yilda fransuz ritsarlarini qattiq mag‘lubiyatga uchratdilar. Biroq, bu muvaffaqiyatsizliklarga qaramay, qirol qo‘shinlari 1305 yilda Lilla yonidagi jangda flandriyaliklarga zarba berganlaridan so‘ng, Flandriyaning bir qismi qirol domeniga qo‘shib olindi.

Flandriya urushi vaqtida xarajatlarning g‘oyatda ko‘payib ketganligi, shuningdek, qirol saroyida ortiqcha isrofgarchilikka yo‘l qo‘yilganligi tufayli XIV asr boshlarida Filipp IV ning moliyaviy ishlari tamomila izdan chiqdi. Qirol har qanday yo‘llar bilan daromadlarini ko‘paytirmoqchi bo‘ldi. U shaharlardan pul qarz olib, odatda uni qaytarmasdi, talonchilik maqsadida yahudiylarni mamlakatdan haydab yuborib, nohaq soliqlar olib bo‘lgandan so‘ng, yana ularni mamlakatga kirgizardi, u tanga-chaqani buzib, buning oqibatida fransuz savdosini izdan chiqarib yubordi, qirollikka qarashli yer-mulklardagi dehqonlarni katta haq to‘lash evaziga ozodlikka chiqishga majbur qilardilar.

Papa ruhoniylarning qirolga biror-bir soliq to‘lashni va graf Flandriyskiy Filipp IV ustidan papaga shikoyat qilganligi uchun papa Filipp IV ga Flandriyaga qarshi urushni to‘xtatishni talab qildi. Papaning aralashuviga javoban, Filipp IV 1302 yilda **uch toifa:** *ruhoniylar, dvoryanlar va shaharliklar* (har bir shahardan 2 tadan) vakillari ishtirokida **General shtatlarni chaqiradi** (*General shtatlar* degan nom – “yalpi toifalar” – (*Etats Generaux*) deb nomlanishi keyinchalik 1484 yildan boshlab qo‘llana boshlangan) va ularga qirol bilap papa o‘rtasidagi janjalni muhokama qilishni taklif etdi. General shtatlar papaning Fransiyaning ichki ishlariga aralashuvini qoraladi.

Jamoatchilik ko‘magiga tayangan Filipp IV, papalikka qarshi zo‘ravonlik tadbirlarini qo‘llashga o‘tdi.

Papaning Fransiyaga yuborgan legati (vakili), qirol buyrug‘i bilan qamoqqa olindi. Filipp IV papani lavozimidan chetlatish harakatini boshlab, o‘z agentlari Nogareni va Plezianlarni Rimga yuboradi. Ular pulni ayamasdan papaning Italiyadagi siyosiy raqiblarini o‘z tomoniga og‘dirib, 1303 yil sentabrda Bonifatsiyning Anani shahridagi qarorgohiga bostirib kirib, uni uy qamog‘iga oladi. Papaning tarafdorlari bir necha kundan so‘ng uni qutqaradi. Lekin keksayib qolgan Bonifatsiy bu tahqirlarni ko‘tara olmay ko‘p o‘tmasdan vafot etadi. Filipp IV ning tazyiqi bilan, 1305 yili Bordr arxiyepiskopi Kliment V papalikka saylanadi. Kliment V Rimda

istiqomat qilishdan xavfsirab, o‘z rezidensiyasini Fransiyaga ko‘chirdi. Dastlab u Lionda, keyin Avinyon shahriga ko‘chib keldi, va u yerda papalar deyarli 70 yil davomida (1309—1378) istiqomat qilishdi.

Qirolning papa bilan qilgan mojarosi munosabati bilan birinchi marta chaqirilgan General shtatlar, keyin Filipp IV davrida 1308 va 1313—1314 yillarda yig‘ildi, bunda tanga-pullarni zarb etish va uning tarkibidagi nodir metallning miqdorini aniqlash masalalari muhokama qilindi.

Doimo moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirgan Filipp IV, har safar yangi soliqlar yig‘ishga rozilik berishni shtatlarga taklif etardi. 1308-1309 yillarda qirol qizi Izabellaning nikoh to‘yiga ketadigan xarajatlarni qoplash uchun ayrim grafliklar va gersogliklardan ed deb atalgan soliq yig‘ishga ruxsat berish uchun muzokaralar olib boradi.

1337 yildan 1453 yilgacha goh to‘xtab, goh davom etgan Yuz yillik urush ikki qo‘shni feodal davlatning to‘qnashuvi bo‘lib, ularning har biri bu vaqtga kelib siyosiy jihatdan markazlab, va katta moddiy mablag‘larni qo‘lga kiritgan edi.

Flandriyadan inglizlar bu yerda ko‘p daromadlar olardilar. Flandriya masalasida Angliya bilan Fransiya o‘rtasida nizo chiqdi.

Filipp IV 1328 yilda vafot etadi. Ingliz qirolu Eduard III Filipp IV ning qizidan nabirasi sifatida Fransiya taxtiga o‘z da‘vosini e‘lon qilishi urush chiqishiga bahona bo‘ldi. Fransiyada esa Xlodvig davridan qolgan yer-mulki tojni erkak merosxo‘rga qoldirish mumkinligi haqidagi qonunni ro‘kach qilishib, “Sali haqiqati” ga asoslanib, Eduard III ning talabini rad etishadi.

Urushning bosh sababi esa shimoliy Flandriya uchun talashish edi. Urush 1337 yili inglizlarning shimoldagi qator muvaffaqiyatlari bilan boshlanadi. Ular 1340 yili Fransiya sohillaridagi Sleys dengiz jangida g‘olib chiqadilar. Dengizda qozonilgan bu g‘alaba ingliz flotini dengizda hukmron qilib qo‘ydi.

Inglizlar bilan fransuzlar o‘rtasidagi quruqlikdagi jang Pikardiyadagi Kresi yonidagi 1346 yilgi jang edi, bu jangda fransuz qo‘shinlari talafot ko‘rib, Eduard III boshchiligidagi ingliz qo‘shinlari to‘la g‘alabaga erishdilar, bu jang o‘rta asrlardagi eng mashhur janglardan biri edi. Fransuzlarning yengilishining asosiy sababi, fransuz ritsarlarining umumiy safda turib jang qilishga qobiliyatsizligi edi. Ingliz qo‘shinlari orasida ajoyib o‘q-yoy otuvchilarning borligi ularning qo‘lini balandga olib keldi. Bu g‘alabalardan so‘ng inglizlar 1347 yili Angliyadan jun keltiriladigan muhim port bo‘lgan Kaleni egallashadi.

Janubi-g‘arbda inglizlar Gnen va Gaskonni egallab, noiblikka Eduard III ning “qora shahzoda” nomini olgan, ritsarlik jasoratligi bilan dong qozongan o‘g‘li Eduard tayinlangan. Qora rangli sovut kiygan shahzoda Bordoda joylashib, Fransiyaning

markaziy viloyatlariga talonchilik bosqinlari uyushtirgan. Navbatdagi bosqindan qaytayotganda 1356 yili uning qo‘shini Puatye yaqinida son jihatdan ustun fransuzlarga duch keladi.

Bu jangda fransuz feodallari, ritsarlari asir qilib olindi. Bu jangda umumiy yo‘qotishlar 5-6 ming kishini tashkil qilib, ularning yarmini ritsarlar tashkil qilgan. General shtatlarning bu barcha talablari 1357 yilgi “Buyuk mart ordonansi” nomi bilan rasmiylashtirilib, dofin 1357-yil 3 martda imzo chekdi va bu hujjat Angliyadagi “Buyuk Erkinlik xartiyasi”ga o‘xshab, general shtatlar talablaridan kelib chiqqan qarorlardan iborat edi.

Uchinchi toifaning «o‘zboshimchaligi»dan g‘azablangan saroy feodallari Etyen Marsel va harakatning boshqa rahbarlariga nisbatan jazo choralari qo‘llashni qattiq talab qildilar. Dofin o‘zi imzo chekkan mart ordonansini bajarishga ro‘yxush bermadi. Shundan keyin 1358 yilning 22 fevralida Parijda qo‘zg‘olon ko‘tarildi, bu qo‘zg‘olonni Marsel tarafdorlari tayyorlagan edi. Parijning 3 mingga yaqin hunarmandlari qirol maydoniga to‘planib, saroyiga bostirib kirdilar. Dofinning ikkita bosh maslahatchisi o‘ldirildi. Marselning o‘zi bosh maslahatchi bo‘lib oldi.

Harbiy islohot natijalari urushning borishida darhol namoyon bo‘ldi. 1369-yilda urush harakatlari boshlanib boshlanib ketganidan so‘ng, bu harakatlar inglizlar uchun muvaffaqiyatsiz bo‘lib chiqdi. Karl V ning iste‘dodli bosh qo‘mondoni Dyugeklen, tez-tez va to‘satdan harakat qilib, inglizlarni birin-ketin Normandiya, Puatye va Giyendan surib chiqardi. Dyugeklen qasrlarni qamal qilishda artilleriyadan foydalandi. U 200 dan ziyodroq qal’alarni dushmandai tozaladi. 1380 yilda inglizlar qo‘lida jami bo‘lib bir nechta sohil bo‘yi shaharlari qolgan edi. Urush asta-sekin so‘na bordi. Karl V va Dyugeklen vafotidan keyin, 1396 yilda 28 yilga cho‘zilgan yarashish ahdi tuzildi.

XIV asrning oxiri — XV asrning boshlari Fransiyada yangi siyosiy inqiroz zamoni bo‘ldi. Karl V ning o‘g‘li Karl VI (1380—1422) 12 yoshida qirol bo‘ldi. 90-yillarning boshlarida u ruhiy kasallikka chalinib qoladi va saroy ayonlari qo‘lida qurolga aylanadi. Mamlakatni zodagonlarning ikki guruhi navbat bilan boshqargan. Ulardan birini qirolning amakisi, Burgundiya gersogi boshqarsa, ikkinchisiga Karlning ukasi-Orlean gersogi va graf Armanyak yetakchilik qilganlar.

Butun Fransiya bir-biriga raqib guruhlarga bo‘linib ketdi. Burgundiya gersogi partiyasiga qarshi 1411yildan boshlab, Orleanskiyning qaynotasi graf Armanyak boshchiligida kurash boradi. Har ikkala to‘da navbati bilan hokimiyat tepasiga chiqib olib, davlat mablag‘larini talon-taroj qildi, qirollikka qarashli mulklarni bosib oldi, shaharlarni taladi.



Burgundlar va armanyaklar kurashi avj olgan bir paytda ingliz qiroli Genrix V 30 ming kishilik qo‘shin bilan Fransiyaning shimoliga kelib tushadi. Fransuzlarda 100 ming kishilik qo‘shin bor edi-yu, lekin ularning harbiy mahorati g‘oyat past edi. 1415 yil kuzida Azenkurga yaqinidagi jangda, fransuzlar qattiq mag‘lubiyatga uchradilar.

Karl VIII 1491 yili Bretan gersogining qizi Annaga uylanishi bilan, Fransiya qirolligining markazlashishi yakun topadi. XV asr oxirida Fransiya mutloq monarxiyaga asos solinadi. XVI asr boshlariga kelib Fransiya Yevropadagi eng katta va eng markazlashgan qirolliklardan biriga aylandi.

Foydanilgan adabiyotlar

- 1 Кертман Л.Г. География, история и культура Англии. М.: Высшая школа, 1979.
- 2 Барг М.А. Кромвель и его время. М., Уч.пед.издат РСФСР, 1960.
3. История Ирландии. Отв.ред Л.И.Гольман. М.: Наука, 1980.
4. История Франции. Под рук. А.З.Манфреда в 3-х томах. М.: Наука, 1972-1973.
5. Ревуненков В.Г. Очерки по истории Великой Французской революции. Падение монархии. Л., ЛГУ, 1982.